

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA QO'SHIMCHA JAZOLARNI TAYINLASH VA IJRO ETISHNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

Dauletbayeva Nodira Baxadir qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti magistri

E-mail: dauletbaevanodira@gmail.com

Annotatsiya: maqolada O'zbekiston Respublikasi jinoyat qonunchiligida qo'llaniladigan qo'shimcha jazolarning umumiy tavsifi, qo'shimcha jazolar turlari, ularni tayinlash va ijro etishdagi amaliy muammolar chuqur o'rganilgan. Asosiy e'tibor, mamlakatimiz jinoyat qonunchiligidagi mavjud bo'lgan qo'shimcha jazolarni tayinlash va ijro etish bilan bog'liq masalalarga qaratilgan. Ushbu masalalar yuzasidan tegishli xulosalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: jinoyat qonuni, maqsad, printsiplar, asosiy jazolar, qo'shimcha jazolar, qo'shimcha jazolarni tayinlash, ijro etish.

Qo'shimcha jazolarni tayinlashning maqsadlari va printsiplari asosiy jazolar bilan bir xil bo'lsa-da, ular o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, jinoyat qonunchiligi sanksiyalari doirasida javobgarlikni individuallashtiruvchi choralar sifatida namoyon bo'ladi. Sababi, bu jazolar jinoyat sodir etgan shaxsning subyektiga asoslanadi. Shu bilan bir qatorda, huquqiy adabiyotlarda qo'shimcha jazolarga doir aniq ta'riflar kam uchraydi va bu holat qo'shimcha jazolar institutning mohiyatini to'la ifoda eta olmaydi.

Qo'shimcha jazolarning har biri alohida va o'ziga xos ijtimoiy maqsadga ega. Masalan, muayyan huquqdan mahrum qilish jazosi jinoyat sodir etgan shaxsga ma'lum bir huquqlarni cheklash orqali ta'sir etish, shu bilan birga asosiy jazoning ta'sirini oshirish vositasi bo'lib xizmat qiladi.

Harbiy yoki maxsus unvondan mahrum qilish jazosi esa o'zining siyosiy-huquqiy mohiyatini namoyon etadi. Bu jazo turi, odatda, davlat tomonidan e'tirof

etilgan xizmatlarni qadrlash va ijtimoiy qadriyatlarni targʻib qilishga xizmat qiladigan mukofot tizimi bilan bogʻliq boʻlgan unvonlarni bekor qilish orqali, shaxsning jamiyatdagi alohida maqomini yoʻqotishiga sabab boʻladi. Natijada, ularning yoʻqolishi bilan shaxs alohida maqomni va turli xil imtiyozlarni yoʻqotadi, jamiyatning oddiy aʼzosiga aylanadi. Bu holat uning moddiy ahvoli, kasbiy faoliyati hamda rasmiy mavqeiga taʼsir koʻrsatadi.

Shunga qaramasdan, hozirda qoʻshimcha jazo instituti jinoyat huquqida chuqur oʻrganilmagan va shakllanmagan sifatida namoyon boʻlmoqda. Natijada, huquqni qoʻllovchi organlar uni jinoiy jazo doirasidagi zarur jazo turi sifatida koʻrilmayapti

Yuridik adabiyotlarda esa baʼzan qoʻshimcha jazolarni eskirgan jazo shakllari sifatida talqin qilish holatlari mavjud. Ammo bu yondashuv notoʻgʻri, chunki zamonaviy jinoyat huquqida va sud amaliyotida ularning samarali natijalari isbotlangan.

Bugungi kunda jinoyatlarning yangi turlari va ularni amalga oshirish uslublarining vujudga kelishi sababli, ularning oldini olishga qaratilgan yangi qoʻshimcha jazo choralarini joriy etish zarurati yuzaga chiqmoqda.

Qoʻshimcha jazolarni jinoyat sodir etishda ayblanayotgan shaxsga taʼsir etishdagi samaradorlik ularning shaxsiy xususiyatlarga mos ravishda qoʻllanilishida namoyon boʻladi. Jinoyat huquqi nazariyasida har bir jinoyat sodir etgan shaxs oʻziga xos deb eʼtirof etiladi, shu sababli unga nisbatan individual jazo tayinlanishi lozim.

Oʻzbekiston Respublikasida qoʻshimcha jazolarni tayinlash va ijro etishni takomillashtirish masalalariga toʻxtalib oʻtsak. Oʻzbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga koʻra, qoʻshimcha jazo sifatida, masalan, muayyan

huquqdan mahrum qilish yoki harbiy, maxsus unvondan mahrum etish jazolari nazarda tutilgan. Biroq ularning qo'llanilish mezonlari yetarli darajada aniq belgilanmagan. Sud amaliyotida bu jazolarning bir xilda qo'llanmasligi, ularni ijro etishda mexanizmlarning noaniqligi, vakolatli organlar o'rtasida hamkorlikning yo'qligi va jazolar bajarilmaganda qanday chora ko'rilishi masalasidagi noaniqliklar muammolarni keltirib chiqarmoqda.

Misol uchun, muayyan huquqdan mahrum qilish jazosining tayinlanishida ba'zida jinoyat sodir etilishiga daxli bo'lgan lavozim yoki faoliyat bilan ushbu huquq orasida bevosita bog'liqlik yo'q. Bu esa adolat tamoyillarining buzilishiga sabab bo'ladi. Sud hukmida aynan qaysi lavozim yoki faoliyat turi taqiqlanishi, uning muddati, hamda jazoni ijro etuvchi organ aniq ko'rsatilmasa, bu jazoni qanday amalga oshirish kerakligi masalasi amaliyotda ochiq qolmoqda.

Shuning uchun quyidagi yo'nalishlarda islohotlar o'tkazilishi maqsadga muvofiq:

Qonunchiligimizdagi aniqlikni kuchaytirish uchun qo'shimcha jazolarni tayinlash mezonlari, ularning dolzarbligi va samaradorligini asoslovchi aniq ko'rsatkichlar ishlab chiqilishi kerak.

Sud amaliyotida bir xillikni ta'minlash maqsadida yagona sud amaliyotini shakllantirish maqsadida Oliy sud tomonidan plenum qarorlari yoki metodik tavsiyalar ishlab chiqilishi lozim.

Jazolarni ijro etish tizimini modernizatsiya qilish orqali jazoni ijro etuvchi organlar o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish va axborot almashinuvini avtomatlashtirish orqali mavjud kamchiliklarni bartaraf etish kerak.

Xorijiy davlatlarning ilg'or tajribasini o'rganib, ularni O'zbekiston qonunchiligiga moslashtirish orqali milliy tizimni takomillashtirish lozim.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekistonda jinoyat-huquqiy islohotlar va tizimning liberallasuvi sharoitida qo‘shimcha jazolar instituti nafaqat jazolash, balki tarbiyaviy, ogohlantiruvchi va ijtimoiy himoya vositasi sifatida ham to‘liq faoliyat ko‘rsatishi zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. // www.lex.uz.
2. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-ijroiya kodeksi. // <https://lex.uz/uz/docs/>.
3. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2006-yil 3-fevraldagi “Sudlar tomonidan jinoyat uchun jazo tayinlash amaliyoti to‘g‘risida”gi 1-sonli qarori.
4. Rustambayev M.H. O‘zbekiston Respublikasi jinoyat kodeksiga sharhlar. Umumiy qism. – Toshkent: “Yuridik adabiyotlar publish”, 2024.– 784 b.
5. Niyozova S.S va Toshev O.S. Jinoyat-huquqiy siyosat (umumiy qism). darslik– T.: TDYU, 2024. – 256 b.
6. Rustambayev M.X. O‘zbekiston Respublikasi jinoyat huquqi kursi. Tom 2. Jazo haqida ta’limot. Darslik. 2-nashr, to‘ldirilgan va qayta ishlangan. – T.: O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Harbiy-texnik instituti, 2018. – 335 b.
7. R.Kabulov, A.A.Otajonov va boshq. Jinoyat huquqi. Umumiy qism: Darslik. O‘zbekiston IIV akademiyasi. 2012. – 448 b.